



Semantic and functional analysis of terms denoting Chinese military branches

Nargiza IMOMIDDINOVA¹

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2025

Received in revised form 5
October 2025

Accepted 10 November 2025

Available online 25

November 2025

Keywords:

People's Liberation Army of
China,
military branch,
military district,
ground forces,
air force,
navy,
missile forces,
strategic support forces,
basic morpheme.

ABSTRACT

This article presents a semantic and functional analysis of terms denoting the components of the Chinese armed forces. The term system was examined through thematic groups corresponding to the five service branches, and conclusions were drawn about the morphemes that are most active in their formation.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss10/S-pp38-45>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Xitoycha qo'shin turlarini ifodalovchi terminlarning semantik va funksional tahlili

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Xitoy xalq-ozodlik armiyasi,
qo'shin turlari,
harbiy okrug,
quruqlik qo'shinlari,
harbiy-havo kuchlari,
harbiy-dengiz floti,
raketa qo'shinlari,
strategik ta'minot kuchlari,
asos morfema.

Mazkur maqola xitoycha qo'shin tarkibiy qism nomlarini bildiruvchi terminlarning semantik va funksional tahliliga bag'ishlanadi. Ushbu terminlar tizimi besh qo'shin turlarini aks ettiruvchi mavzuiy guruhlar misolida o'rganilib, ularning yasashida faol hisoblangan morfemalar borasida tegishli xulosalar keltirildi.

¹ Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

Семантический и функциональный анализ терминов, обозначающих виды войск в китайской армии

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Народно-освободительная армия Китая, род войск, военный округ, сухопутные войска, военно-воздушные силы, военно-морской флот, ракетные войска, силы стратегического обеспечения, базовая морфема.

Данная статья посвящена семантическому и функциональному анализу терминов, обозначающих названия компонентов китайской армии. Эта система терминов была изучена на примере тематических групп, отражающих пять родов войск, и были сделаны соответствующие выводы о морфемах, которые считаются активными при их формировании.

KIRISH

Xitoy xalq-ozodlik armiyasi, ya'ni 中国人民解放军, Zhōngguó Rénmín Jiěfàng Jūn – XXR Qurolli Kuchlarining rasmiy nomi sanaladi. 1927-yilning 1-avgustida Nanchang qo'zg'oloni natijasida "Qizil Armiya" nomi bilan tashkil etilgan hamda Mao Szedun boshchiligidagi Xitoydagi fuqarolar urushi davrida (30-yillar) yirik reydlar (Xitoy kommunistlarining buyuk yurishi) uyushtirilgan. "Xitoy xalq-ozodlik armiyasi" nomi 1946-yilning yozida XKP* qo'shinlaridan – 8-armiya, Yangi 4-armiya va Shimoli-sharqiy armiyadan tuzilgan qurolli kuchlarga; 1949-yilda XXR e'lon qilinganidan keyin esa mamlakat qurolli kuchlariga nisbatan qo'llana boshlagan.

Qonunchilik 18 yoshdan boshlab erkaklarni harbiy xizmatga chaqirishni nazarda tutadi; ko'ngillilar 49 yoshgacha qabul qilinadi. Zahira harbiy xizmatchi uchun yosh chegarasi – 50 yosh. Urush davrida nazariy jihatdan (moddiy ta'minot bo'yicha cheklavlarni hisobga olmagan holda) 750 milliongacha odam safarbar qilinishi mumkin [1].

XXOA to'g'ridan to'g'ri partiya yoki hukumatga emas, balki ikkita maxsus Markaziy harbiy komissiya – davlat va partiyaviy komissiyalarga bo'ysunadi. Odatda bu komissiyalar tarkibi bir xil bo'lib, MHK atamasi birlikda qo'llaniladi. Markaziy harbiy komissiya raisi lavozimi davlat boshqaruvi tizimidagi tayanch mansablardan biri hisoblanadi. So'nggi yillardan boshlab bu lavozimni odatda XXR raisi egallaydi. Ammo 80-yillarda MHKni aslida mamlakat rahbari bo'lgan Den Syaopin boshqargan (shu bilan birga, u hech qachon XXR raisi yoki XXR Davlat Kengashining bosh vaziri bo'lmagan, XKP Markaziy Qo'mitasi bosh kotibi lavozimini "Buyuk proletar madaniy inqilobi" boshlanishiga qadar egallagan).

Xitoy qurolli kuchlari hududiy tamoyil bo'yicha beshta harbiy okrugga bo'lingan: Sharqiy harbiy okrug (东部战区 dōngbù zhànqū), Shimoliy harbiy okrug (北部战区 běibù zhànqū), G'arbiy harbiy okrug (西部战区 xībù zhànqū), Janubiy harbiy okrug (南部战区 nánbù zhànqū) va Markaziy harbiy okrug (中部战区 zhōngbù zhànqū). Shuningdek, ushbu okruglar uch flotni o'z ichiga oladi.

* Xitoy kommunistik partiyasi 中国共产党 Zhōngguó Gòngchǎndǎng.

Xitoy markaziy harbiy komissiyasi raisi (中华人民共和国中央军事委员会主席) – Si SzinPing 习近平. Xitoy markaziy harbiy komissiyasi raisi o‘rinbosarlari (中华人民共和国中央军事委员会副主席) – Syu Chilyang 许其亮, Chjang Yusya 张又侠 [2].

Xitoy harbiy xarajatlar hajmi bo‘yicha dunyoda – ikkinchi (250 mlrd. 240 mln. AQSh dollari), harbiy xizmatchilar soni bo‘yicha – birinchi (2 mln. harbiy xizmatchi), harbiy samolyot va vertolyotlar aviaparklari hajmi (3285 ta) bo‘yicha – uchinchi, tanklar soni (5250 ta) bo‘yicha – to‘rtinchi, harbiy kemalar soni (777 ta) bo‘yicha – birinchi o‘rinni egallaydi [3].

XXOA shiori – xalqqa xizmat qilamiz (xit. 为人民服务 wéi rénmin fúwù); Partiyaga bo‘ysunamiz, jangda g‘alaba qozonamiz, vijdonan xizmatni o‘taymiz (xit. 听党指挥，能打胜仗，作风优良 tīng dǎng zhǐhuī, néng dǎ shèngzhàng, zuòfēng yōuliáng) [4].

XXOA xizmatdagi harbiy xizmatchilar – “haqiqiy xizmatdagi harbiy xizmatchilar” hamda yubeyi junren – “zahiradagi harbiy xizmatchilar” dan tashkil topgan. Haqiqiy xizmatdagi qo‘shinlar Quruqlik qo‘shinlari, Harbiy-dengiz kuchlari, Harbiy-havo kuchlari, Strategik raketa qo‘shinlari, harbiy oliygohlar, harbiy fanlar ilmiy-tadqiqot institutlarini o‘z ichiga oladi [5, c.17].

ASOSIY QISM

中华人民共和国国防部 Zhōnghuá rénmin gònghéguó guófáng bù – XXR Mudofaa vazirligi rasmiy sayti [6] ma‘lumotlariga ko‘ra, XXOA quyidagi qo‘shin turlaridan tashkil topgan:

- 陆军 lùjūn – “quruqlik qo‘shinlari”;
- 空军 kōngjūn – “harbiy-havo kuchlari”;
- 海军 hǎijūn – “harbiy-dengiz floti”;
- 火箭军 huǒjiàn jūn – “raketa qo‘shinlari”;
- 战略支援部队 zhànlüè zhīyuán bùduì – “strategik ta‘minot kuchlari”.

H.Dadaboyev va H.Yodgorovlar ushbu terminlarni qo‘shin turlari va askariy qism nomlarini anglatuvchi terminlar tarzida nomlaganlar [7, 58-b].

Quruqlikdagi qo‘shinlar – jangovar harakatlarni asosan quruqlikda olib borish uchun mo‘ljallangan, son jihatidan eng ko‘p, qurol-aslahasi va harakat usullari xilma-xil bo‘lgan qurolli kuchlar turi. Tashkiliy jihatdan bo‘linma, qism, qo‘shilma va birlashmalardan iborat. Quruqlikdagi qo‘shinlar tarkibiga:

raketa qo‘shinlari;
artilleriya;
motoo‘qchi qo‘shinlar;
tank qo‘shinlari;
quruqlikdagi qo‘shinlarning havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari;
maxsus qo‘shinlar;

qurolli kuchlar front orti ta‘minotining turli xizmat, qism va muassasalari kiradi [8, 6. 304-305].

Quruqlikdagi qo‘shinlar xitoy tilida 陆军 lùjūn termini bilan ifodalanadi: Bunda 陆 lù – “quruqlik, yer, qit’a”, 军 jūn – “qo‘shin, armiya, harbiy” ma‘nolarini anglatadi.

XXOA quruqlikdagi qo‘shinlari 1927 yildan faoliyat yuritgan bo‘lsa-da, rasmiy 1948-yilda tashkil etilgan hisoblanadi. 2022 yilga kelib, doimiy tarkibi 975 ming harbiy xizmatchini tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha Xitoy dunyoda Hindistondan keyin

ikkinchi o'rinda turadi. Bundan tashqari, mamlakat quruqlik qo'shinlari 510 ming kishilik zahiraga ega. XXR milliy mudofaa Vazirligiga bo'ysunadi [9]. 陆军 jangovar harakatlarni asosan quruqlikda olib boradigan qo'shin turi hisoblanadi. Ushbu qo'shin turi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- ❖ 步兵 bùbīng – “piyoda qo'shin” (步 bù qadam+兵 bīng askar, qo'shin);
- ❖ 装甲兵 zhuāngjiǎ bīng – “zirhli tank qo'shinlari” (装甲 zhuāngjiǎ zirh, zirhli+兵 bīng askar, qo'shin);
- ❖ 炮兵 pàobīng – “artilleriya” (炮 pào to'p, artilleriya, o'qotar qurol+兵 bīng askar, qo'shin);
- ❖ 陆军防空兵 lùjūn fángkōngbīng – “harbiy havo mudofaasi qo'shinlari” (陆军 lùjūn quruqlik qo'shinlari+防空 fángkōng havoga qarshi mudofaa+兵 bīng askar, qo'shin);
- ❖ 陆军航空兵 lùjūn hángkōngbīng – “armiya aviatsiyasi” (陆军 lùjūn quruqlik qo'shinlari+航空 hángkōng aviatsiya+兵 bīng askar, qo'shin);
- ❖ 工程兵 gōngchéngbīng – “muhandislik qo'shinlari” (工程 gōngchéng muhandislik ishlari+兵 bīng askar, qo'shin);
- ❖ 防化兵 fáng huà bīng – “kimyoviy mudofaa qo'shinlari” (防化 fáng huà kimyoviy mudofaa+兵 bīng askar, qo'shin);
- ❖ 通信兵 tōngxìnbīng – “aloqa qo'shinlari” (通信 tōngxìn aloqa, ma'lumot, xabar+兵 bīng askar, qo'shin);
- ❖ 雷达兵 léidábīng – “radiolokatsiya qo'shinlari” (雷达 léidá radar, radiolokator+兵 bīng askar, qo'shin);
- ❖ 电子对抗兵 diànzǐ duìkàngbīng – “elektron qarshilik ko'rsatish qo'shinlari” (电子 diànzǐ elektron, raqamli+对抗 duìkàng qarshilik+兵 bīng askar, qo'shin);
- ❖ 汽车兵 qìchēbīng – “avtomobil qo'shinlari” (汽车 qìchē avtomobil+兵 bīng askar, qo'shin) [10, c.27].

Quruqlikdagi qo'shinlar quyidagi tashkiliy tuzilishga ega: (分队 fēnduì) bo'linma – (班 bān) bo'lim, (排 pái) vzvod, (连 lián) rota, (营 yíng) batalon; (部队 bùduì) qismlar – (团 tuán) polk, (旅 lǚ) brigada; (兵团 bīngtuán) qo'shilma – (师 shī) diviziya, (军 jūn) korpus; (军团 jūntuán) birlashma – (军队 jūnduì) umumqo'shin armiyasi, (战线 zhànxiàn) front [5, c.18].

Harbiy-havo kuchlari (HHK) Davlat qurolli kuchlarining turi bo'lib, qurolli kuchlarining o'zga turlari bilan birgalikda, shuningdek, mustaqil tarzda operativ va strategik masalalarni hal etish uchun mo'ljallangan. Vazifasi va jangovar jihatdan qo'llanilishiga ko'ra:

- olis masofalarda harakatlanuvchi;
- front;
- harbiy-transport aviatsiyalariga bo'linadi.
- Taktik va texnik tavsiflariga ko'ra:
- bombardimonchi;
- qiruvchi;
- hujumchi;
- razvedkachi (ayg'oqchi);
- transport;
- qo'makchi aviatsiyalarga guruhlanadi.

Jangovar imkoniyatlariga ko'ra – havoda hukmronlik surish uchun kurash olib borish, qo'shinlar va flot kuchlariga aviatsiyali madad berish, havoda turib himoya qilish, qo'shinlar va moddiy vositalarni desantlash, havoda tashish, havo razvedkasini yuritish va shunga o'xshash tadbirlarni amalga oshirishga qodir.

Harbiy-havo kuchlari dushman ortining olis sarhardlariga kirib borish va ob'ektlariga ta'sir o'tkazishga imkon yaratadi, turli jangovar harakatlarni bajarib, harbiy operatsiyalar davomi va yakuniga katta ta'sir o'tkazish qobiliyatiga ega [8, 6. 349-350].

“Harbiy-havo kuchlari” ma'nosi xitoy tilida 空军 kōngjūn termini bilan ifodalanadi (空 kōng – “havo maydoni, havo, bo'shliq”; 军 jūn – “qo'shin, armiya” ma'nolarini anglatadi).

Xitoy xalq-ozodlik armiyasi harbiy-havo kuchlari 1949-yil 11-noyabrda tashkil etilgan bo'lib, tasarrufidagi samolyotlar soniga ko'ra Rossiya va AQShdan keyin uchinchi o'rinda turadi. 2022-yilga kelib, shaxsiy tarkibi – 395 ming kishini tashkil etmoqda. Xitoy harbiy-havo kuchlari 4000 ta jangovar va 300 ta qo'llab-quvvatlovchi samolyot, 106 ta vertolyot, 700 dan ziyod boshqariladigan zenit raketalarini uchirish qurilmalari, 1000 zenit artilleriyasi qurollari hamda taxminan 450 ta radiolokatsiya postlari bilan qurollangan [11].

Xitoy harbiy-havo kuchlari tarkibidagi qismlar quyidagi terminlar yordamida nomlanadi [12, c.27]:

❖ 航空兵 hángkōng bīng – “aviatsiya” (航空 hángkōng havo, -avia+兵 bīng askar, qo'shin);

❖ 防空兵 fángkōng bīng – “havo hujumidan mudofaa qilish qo'shini” (防空 fángkōng havo hujumidan mudofaa +兵 bīng askar, qo'shin);

❖ 空降兵 kōngjiàng bīng – “havo-desant qo'shinlari” (空降 kōngjiàng aviadesant, havo-desant+兵 bīng askar, qo'shin);

❖ 防化兵 fáng huà bīng – “kimyoviy mudofaa qo'shinlari” (防化 fáng huà kimyoviy mudofaa+兵 bīng askar, qo'shin);

❖ 通信兵 tōngxìnbīng – “aloqa qo'shinlari” (通信 tōngxìn aloqa, ma'lumot, xabar+兵 bīng askar, qo'shin);

❖ 雷达兵 léidábīng – “radiolokatsiya qo'shinlari” (雷达 léidá radar, radiolokator+兵 bīng askar, qo'shin);

❖ 电子对抗兵 diànzǐ duìkàngbīng – “elektron qarshilik ko'rsatish qo'shinlari” (电子 diànzǐ elektron, raqamli+对抗 duìkàng qarshilik+兵 bīng askar, qo'shin);

❖ 技术侦察兵 jìshù zhēnchá bīng – “texnik-razvedka qo'shinlari” (技术 jìshù texnika, san'at, texnologiya+侦察 zhēnchá razvedka, tergov, tergov olib bormoq+兵 bīng askar, qo'shin).

Harbiy-dengiz floti (HDF) Qurolli kuchlar turi bo'lib, okean va dengizlardagi harbiy harakatlar (urush) maydonlarida jangovar vazifalarni bajarish uchun mo'ljallangan.

Dushmanning yerdagi ob'ektlariga qarata strategik-yadroviy kuchlar bilan zarba berish, dengiz va bazalaridagi kuchlarini yo'q qilish, dunyoning har qanday mintaqasida, okean va dengizdagi dushmanga tegishli aloqa yo'llarini vayron etishga qodir.

Harbiy-dengiz floti suv usti va suv osti kemalari (dizelli va atom dvigatelli), aviatsiya, qirg'oqdagi raketa-artilleriya qismlari va dengiz piyodalaridan tashkil topgan. Harbiy-dengiz floti tarkibiga, shuningdek, ko'makchi flot kema va qayiqdari, maxsus qism va qurolli kuchlar front orti muassasalari kiradi [8, 6.320].

Harbiy-dengiz kuchlari xitoy tilida 海军 hǎijūn termini bilan atalib, bunda 海 hǎi “dengiz”; 军 jūn esa “qo’shin, armiya” ma’nolarini bildiradi.

XXOA harbiy-dengiz kuchlari yoki harbiy-dengiz floti 1949-yil 23-aprelda tashkil topgan. 240 ming kishi va 3 flotni (Shimoliy Dengiz, Sharqiy Dengiz va Janubiy Dengiz flotlari) o’z ichiga oladi. XXR Milliy Mudofaa Vazirligiga bo’ysunadi [13]. Tashkiliy jihatdan Xitoy harbiy-dengiz kuchlari tarkibiga kiradigan qismlar quyidagi terminlar bilan ifodalanadi:

❖ 潜艇部队 qiántǐng bùduì – “suv osti floti” (潜艇 qiántǐng suv osti kemasi+部队 bùduì qo’shin, bo’linma, harbiy qism);

❖ 水面舰艇部队 shuǐmiàn jiàntǐng bùduì – “suv usti kuchlari” (水面 shuǐmiàn suv yuzasi+舰艇 jiàntǐng harbiy kema+部队 bùduì qo’shin, bo’linma, harbiy qism);

❖ 海军航空兵 hǎijūn hángkōngbīng – “harbiy-dengiz aviatsiyasi” (海军 hǎijūn harbiy-dengiz kuchlari+航空 hángkōng havo, -avia+兵 bīng askar, qo’shin);

❖ 海军岸防部队 hǎijūn ànfáng bùduì – “qirg’oq mudofaasi qo’shinlari” (岸防 ànfáng qirg’oq mudofaasi+部队 bùduì qo’shin, bo’linma, harbiy qism);

❖ 海军陆战队 hǎijūn lùzhànduì – “dengiz piyodalari” (陆战 lùzhàn quruqlikdagi jang+队 duì – otryad, bo’linma, qism).

Raketa qo’shinlari 60-yillar boshida tashkil etilgan. Jang va amaliyot jarayonida dushmanga qarata yadro qurollarini qo’llash va o’t ochish bilan zarba berishga mo’ljallangan [8, 6. 198].

Raketa qo’shinlari xitoy tilida 火箭军 huǒjiàn jūn deyiladi: 火箭 huǒjiàn “raketa”, 军 jūn esa “qo’shin, armiya” ma’nolarini anglatadi.

Raketa qo’shinlari XXRning strategik raketa kuchlari hisoblanib, yadroviy va oddiy ballistik raketalar bilan qurollangan. Shaxsiy tarkibi 150 ming harbiy xizmatchini tashkil etadi. 1966-yil 1-iyuldan 2015-yil 31-dekabrgacha 第二炮兵 dì’èr pàobīng (Ikkinchi artilleriya korpusi) deb nomlangan. 2015-yil 31-dekabrida Raketa qo’shinlari sifatida qayta tashkil etildi, Markaziy harbiy kengashga bo’ysunadi [14].

Xitoy Raketa qo’shinlari tuzilishi jihatdan quyidagi terminlar bilan ifodalanuvchi qismlardan tashkil etilgan:

❖ 核导弹部队 hé dǎodàn bùduì – “yadroviy raketa kuchlari” (核 hé yadroviy+导弹 dǎodàn reaktiv snaryad, raketa+部队 bùduì qo’shin, bo’linma, harbiy qism);

❖ 常规导弹部队 chángguī dǎodàn bùduì – “odatiy raketa kuchlari” (常规 chángguī umumiy qabul qilingan me’yorlar+导弹 dǎodàn reaktiv snaryad, raketa+部队 bùduì qo’shin, bo’linma, harbiy qism);

❖ 作战保障部队 zuòzhàn bǎozhàng bùduì – “jangovar ta’minot kuchlari” (作战 zuòzhàn jang olib bormoq, urush olib bormoq+保障 bǎozhàng ta’minlamoq, kafolat bermoq+部队 bùduì qo’shin, bo’linma, harbiy qism).

Strategik ta’minot kuchlari eng yangi qo’shin turi bo’lib, 2015-yil 31-dekabrdan tuzilgan. Faoliyat doirasi quyidagi terminlarda ifodasini topgan:

- 太空战 tàikōng zhàn – “kosmik urush”;
- 网络战 wǎngluò zhàn – “kiberurush”;
- 电子战 diànzǐ zhàn – “radioelektron urush”;

- 心理战 xīnlǐ zhàn – “psixologik urush”;
- 情报侦察 qíngbào zhēnchá – “razvedka”;
- 卫星管理 wèixīng guǎnlǐ – “sun’iy yo’ldoshlar boshqaruvi”;
- 中国航天研发和运营 zhōngguó hángtiān yánfā hé yùnyíng – “aerokosmik tadqiqotlar”.

Strategik ta’minot kuchlari xitoy tilida 战略支援部队 zhànlüè zhīyuán bùduì termini bilan ifodalanib, bunda 战略 zhànlüè – strategiya, taktika, strategik; 支援 zhīyuán – qo’llab-quvvatlamq, yordam bermq; 部队 bùduì esa qo’shin, bo’linma, harbiy qism ma’nolarini bildiradi. Strategik ta’minot kuchlari quyidagilardan iborat:

- ❖ 电子对抗力量 diànzǐ duìkàng lìliàng – “elektron qarshilik ko’rsatish kuchlari” (电子 diànzǐ elektron, raqamli+对抗 duìkàng qarshilik+力量 lìliàng kuch, quvvat);
- ❖ 网络攻防力量 wǎngluò gōngfáng lìliàng – “kiberhavfsizlik kuchlari” (网络 wǎngluò Internet tarmog’i+攻防 gōngfáng hujum va mudofaa+力量 lìliàng kuch, quvvat);
- ❖ 卫星管理力量 wèixīng guǎnlǐ lìliàng – “sun’iy yo’ldoshlar boshqaruvi kuchlari” (卫星 wèixīng sun’iy yo’ldosh+管理 guǎnlǐ boshqarmoq, tartibga solmoq+力量 lìliàng kuch, quvvat).

Xitoy qurolli kuchlari tuzilishiga oid terminologiya haqida so’z ketganda, 军种 jūnzhǒng va 兵种 bīngzhǒng terminlarini bir-biridan ajratish juda muhim. Ulardan birinchisi qurolli kuchlar turlarini bildirsa, ikkinchisi qo’shin turlarini anglatadi. 军种 tarkibida bir nechta 兵种 bo’lishi mumkin. Masalan, 陆军 lùjūn (quruqlikdagi qo’shinlar), 空军 kōngjūn (harbiy-havo kuchlari), 海军 hǎijūn (harbiy-dengiz floti) va 火箭军 huǒjiànjūn (raketa qo’shinlari) terminlarining barchasi 军 jūn morfemasidan yasalgan. 航空兵 hángkōngbīng (aviatsiya), 海军航空兵 hǎijūn hángkōngbīng (harbiy-dengiz aviatsiyasi), 防化兵 fáng huà bīng (kimyoviy mudofaa qo’shinlari), 空降兵 kōngjiàng bīng (havo-desant qo’shinlari) kabi terminlar 兵 bīng morfemasi ishtirokida hosil bo’lgan.

XXOA va Markaziy harbiy kengashi tuzilishi quyidagi ko’rinishga ega:

- ✓ 5 harbiy okrug (战区 zhànqū);
- ✓ 5 qo’shin turi (军种 jūnzhǒng);
- ✓ 7 bo’lim (部, 厅 bù, tīng);
- ✓ 3 qo’mita (委员会 wěiyuánhùi);
- ✓ 5 tayanch organ (直属机构 zhíshǔ jīgòu);
- ✓ 1 tayanch qism (直属部队 zhíshǔ bùduì);
- ✓ 3 tayanch o’quv yurti va ilm-fan maskani (直属院校和科研机构 zhíshǔ yuànxiào hé kēyán jīgòu).

XULOSA

Xitoy qurolli kuchlarining besh turini aks etishda 35 harbiy termin (5 qurolli kuchlar turi, 30 qo’shin turlari)dan foydalaniladi.

Tadqiqotda 军种jūnzhǒng va 兵种 bīngzhǒng terminlarining mazmun-mohiyatiga aniqlik kiritildi, chunonchi, 军种 termini mamlakat qurolli kuchlari turlarini anglatishi (陆军 – quruqlikdagi qo’shinlar, 海军 – harbiy-dengiz floti va h.k.), 兵种 termini esa kichik

qo'shin turlarini bildirishi (炮兵 – artilleriya, 空降兵 – havo-desant qo'shinlari, 潜艇部队 – suv osti floti, 核导弹部队 – yadroviy raketa kuchlari, 网络攻防力量 – kiberxavfsizlik kuchlari) ta'kidlandi.

Qo'shin tarkibiy qismini anglatuvchi terminlarning yasashida ekologiya bilan bog'liq tushunchalarni bildiruvchi asos morfemalarning faolligi aniqlandi (陆 – qit'a, quruqlik; 空 – havo; 海 – dengiz).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Народно-освободительная армия Китая — Википедия (wikipedia.org)
2. 高层 – 中华人民共和国国防部 (mod.gov.cn)
3. <https://pooha.net/society/weaponry/593-army-2022?ysclid=l5w0b64sim889154036>
4. 中国人民解放军 – 维基百科 · 自由的百科全书 (wikipedia.org)
5. Хабаров А.А. Практический курс военного перевода китайского языка. Учебник. Ч.1. – М.: Восточная книга, 2014.
6. 高层 – 中华人民共和国国防部 (mod.gov.cn)
7. Dadaboyev H., Yodgorov H. O'zbek harbiy terminologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Sahhof, 2021. – b.58.
8. Долимов Ш.З. Харбий атамаларнинг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: 2007.
9. 中国人民解放军陆军 – 维基百科 · 自由的百科全书 (wikipedia.org)
10. Анкин А.В., Хрипунов И.Г. Учебник практического курса перевода (военного перевода). Китайский язык. – Новосибирск.: НВВКУ, 2009. – С.27.
11. 中国人民解放军空军 – 维基百科 · 自由的百科全书 (wikipedia.org)
12. Анкин А.В., Хрипунов И.Г. Учебник практического курса перевода (военного перевода). Китайский язык. – Новосибирск.: НВВКУ, 2009. – С.27.
13. 中国人民解放军海军 – 维基百科 · 自由的百科全书 (wikipedia.org)
14. 中国人民解放军火箭军 – 维基百科 · 自由的百科全书 (wikipedia.org)